

## **DEMOKRATIK VA XALQCHIL QOMUS**

**Oripova Mavluda Qodirovna**  
**Buxoro VPKQTMOI "Ijtimoiy fanlar va ma`naviyat asoslari"**  
**kafedrası katta o`qituvchisi**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 22 yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rin egallashda Asosiy Qonunimiz mustahkam zamin bo'lib kelmoqda.

Buyuk kelajak sari shaxdam odimlab borishimizning ushbu shonli yillari davrida Asosiy Qonunimiz O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va insonparvar fuqarolik jamiyatining mustahkam huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning erkinlik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasidir. Avvalambor, Konstitutsiyaviy "bino"ni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini mujassam etgan.

Qolaversa, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, Asosiy Qonunimiz sharq va g'arb, janub va shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or Konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

Suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishining quyidagi sakkizta muhim xususiyati bor:

Birinchi xususiyati – Konstitutsiya loyihasi 1990 yilda Prezident Islom Karimov boshchiligida tashkil etilgan Konstitutsiya komissiyasi tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlandi.

Ikkinchi xususiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tashabbuskori, ilhomlantiruvchisi va asosiy muallifi mamlakat Prezidenti hisoblanadi.

Uchinchi xususiyati – Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda uch manbaga tayanildi. Bular:

- milliy huquqiy meros;
- inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar;
- xorijiy Konstitutsiyaviy tajriba.

To'rtinchi xususiyati – Konstitutsiya loyihasi 1992- yil sentabr oyidan dekabr oyigacha keng umumxalq muhokamasidan o'tdi.

Beshinchi xususiyati – Konstitutsiya loyihasi nufuzli xalqaro tashkilotlar va demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tdi.

Oltinchi xususiyati – Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi demokratik davlat – O'zbekiston Respublikasining mavjudligini aks ettirmoqda.

Ettinchi xususiyati – Konstitutsiyamiz XX asrning oxirgi o'n yilligida qabul qilingan "uchinchi avlod Konstitutsiyalari"ga mansub bo'lib, ayni paytda tuzilishiga ko'ra o'zining yanada zamonaviy ekani bilan farqlanadi, ya'ni ixcham va puxta shakli, beqiyos mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan ajralib turadi.

Sakkizinchi xususiyati – Konstitutsiyamiz asosini davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanishning mashhur besh tamoyilini o'z ichiga olgan "o'zbek modeli" tashkil etadi. Bu tamoyillar – iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va islohotlarni bosqichma-bosqich, tadrijiy amalga oshirishdan iborat. Konstitutsiya xalqimizga larzalarsiz bir ijtimoiy-siyosiy tizimdan boshqa tizimga o'tishga yordam berdi.

Xorijlik ekspertlarning qayd etishicha, milliy qonunchiligimizning asosiy qoidalari asosida muntazam takomillashib borayotgani Konstitutsiyaning xalqimiz hayotida muhim o'rin egallaganini tasdiqlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Amerikalik ekspert Donald S.Karlaylning e'tirof etishicha: "O'zbekistonning Konstitutsiyasi sovetlardan keyingi davlatlar – sobiq ittifoqdosh davlatlar Konstitutsiyalari orasida birinchidir. Boshqa barcha Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlari va Boltiqbo'yi davlatlarida Konstitutsiyalar keyinroq, ya'ni 1992-1996 yillarda qabul qilingan. Konstitutsiya o'zbek jamiyati va davlatining barcha eng muhim sohalarini

tartibga soladi, qisqaligi va aniq ifodalanganligi, shuningdek, o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. U dunyodagi eng maqbul tuzilishga ega Konstitutsiyalardan biridir”.

Rossiyalik ekspert N.Mishin shunday yozadi: “Asosiy Qonunda inson huquqlari va davlat mustaqilligi g'oyalariga sodiqlik, hozirgi va kelajak avlodlar oldida chuqur mas'uliyatni his etish, o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribalariga tayanish, demokratiya va qonuniylikka hurmat, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalarini tan olish, O'zbekistonning munosib hayotini ta'minlash, insonparvar huquqiy davlat yaratish va nihoyat, mustahkam fuqaroviy tinchlik hamda milliy kelishuvni ta'minlash kabi ezgu niyatlar o'z mujassamini topgan”.<sup>1</sup>

Asosiy Qonunimizga nisbatan bunday yuksak va xolis baholar berilishi bejiz emas. Buni, jumladan quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

**Birinchidan,** bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni, xalqaro andozalarni o'zida mujassam etgan hujjatdir.

**Ikkinchidan,** bizning Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bunda qaysidir davlatning tayyor Konstitutsiyasini ko'r-ko'rona ko'chirib olish yo'lidan bormay, balki eng ilg'or xorijiy Konstitutsiyaviy tajribalarni o'rgandik va e'tiborga oldik. Natijada endilikda Bosh Qomusimiz dunyo miqyosida ham har qanday taraqqiy topgan davlat Konstitutsiyasi bilan bimalol kuch sinashmoqda.

**Uchinchidan,** Konstitutsiyaning g'oya va normalari o'zbek xalqining teran tarixiy ildizlariga asoslangan bo'lib, u ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlarni, ulug' ajdodlarimizning huquqiy merosini o'z ichiga olgan.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi – ulkan tarixiy ahamiyatga ega noyob hujjat bo'lib, unda suveren davlat va adolatli jamiyatni shakllantirishning muhim asoslari, inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga sodiqlik, fuqarolar tinchligi hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash mustahkamlangan.

---

<sup>1</sup> “Xalq so'zi” 2012 yil 1 sentabr №172 (5592)

Uning qoidalari mamlakatimizda bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlarni ortga qaytarib bo'lmاسligi, ularni jadal va barqaror rivojlantirish hamda kelajakda davlatimizni ravnaq toptirishni kafolatlaydi.

Asosiy Qomusimiz saylov erkinligi, odamlarimizning o'z xohish-irodasini bildirish erkinligi kafolatlarini, har qaysi insonning hokimiyatning vakillik organlariga saylash va saylanish, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini mustahkamladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda umume'tirof etilgan standartlar va yuksak demokratik talablarga har tomonlama javob beradigan saylov tizimi shakllandi. Bu borada Konstitutsiyamiz va saylov qonunchiligimizga asoslangan mustahkam huquqiy-me'yoriy zamin yaratildi.

Davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri - yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va huquqiy tarbiyani yanada yaxshilashdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yuksak huquqiy madaniyat - demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Prezidentimizning 2001-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi bu jarayonni yanada faollashtirishga xizmat qilayotir. Ushbu hujjatga asosan ta'limning barcha bosqichida Konstitutsiyani o'qitish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari joriy etildi.

Konstitutsiyamiz barqaror iqtisodiyot, erkin va farovon hayotga ega, jahonda hurmat-e'tibor qozongan, o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunidir. Bunday mukammal huquqiy asosga ega xalqimiz barcha sohalarda yanada ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritaveradi. Zero, Konstitutsiyamiz – nafaqat bugungi kunning Qomusi, balki u ertangi kunimiz, qurayotgan jamiyatimiz istiqbolini aniqlab beruvchi hujjat, farzandlarimiz yo'lini yoritib turguvchi mayoqdir.